O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY- SIYOSIY
FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60-60220500
“ ”
2024 yil “09” 16

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:2024 yil
_____
R.T.Xalmuradov
2024 yil “ ” _____

**“MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI”**

Fanidan
**FAN DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60220500- Falsafa mutaxassisligi uchun |

| Fan/modul kodi<br>MTN-1121<br>MTN-1221-<br>MTN-1321<br>MTN-1421 | O‘quv yillari<br><br>2024-2025<br>2025-2026 | Semestr<br><br>1-2-3-4 | ECTS – Kreditlar<br><br>22 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br><br>Majburiy | Ta’lim tili-<br><br>O‘zbek | | Haftadagi dars soatlari<br><br>4 soat |

| 1. | Fan nomi | Auditoria mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami: |
|---|---|---|---|---|
| | Mantiq tarixi va nazariyasi | 1-semestr- 78 | 102 | 180 |
| | Mantiq tarixi va nazariyasi | 2-semestr-80 | 100 | 180 |
| | Mantiq tarixi va nazariyasi | 3-semestr-60 | 90 | 150 |
| | Mantiq tarixi va nazariyasi | 4-semestr-60 | 90 | 150 |

| II Fanning maqsadi (FM) | |
|---|---|
| 2 | **Mantiq fanining maqsadi va vazifalari**; talabalarni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalari bilan tanishtirish, ularda murakkab mantiqiy masalalar va mashqlarni yechish malakasini mustahkamalsh va, umuman, mustaqil va erkin tarzida fikr yuritish qobiliyatini takomillashtirishdan iborat.<br>talabalarning mantiqning asosiy masalalari – tushuncha, mulohaza, xulosa chiqarish, isbotlash, gipoteza qurish kabilarni o‘zlashtirishishiga erishish;<br>- obyektiv borliq hodisalarini ilmiy – falsafiy tahlil qilishning tushunchalar apparatini egallashiga va undan foydalanishiga yordam berish;<br>-an’anaviy va zamonaviy mantiq o‘rtasidagi uzuviy bog‘liqligikni tushunish, ularning imkoniyatini ayrim mantiqiy masalalarni yechish yo‘lida birlashtirish mantiqning formallashgan tilini chuqur o‘rganish, mulohazalar mantig‘i va predikatlar mantig‘ining konseptual vositalaridan samarali foydalanishga erishish;<br>- talabalarga bahs yuritish, munozara qilish, isbotlash va rad etishning usullari va qoidalarini tushuntirish, ularda ilmiy ishonch –e’tiqodning shakllanishiga ko‘maklashish;<br>- ilmiy bilimlarning mantiqiy shakllari, xususan muammolarni yaratish, farazlarni qurish va asoslash, ilmiy terminlar va qonunlarni shakllantirish, ilmiy nazariyaning qurish sir-asrorlarini o‘rganishga erishish .<br>-talabalarning mantiqning asosiy masalalari – tushuncha, mulohaza, xulosa chiqarish, isbotlash, gipoteza qurish kabilarni o‘zlashtirishishiga erishish;<br>- obyektiv borliq hodisalarini ilmiy – falsafiy tahlil qilishning tushunchalar apparatini egallashiga va undan foydalanishiga yordam berish; |

| Fan mazmuni | |
|---|---|
| II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)<br>II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: | |
| Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M) | |
| 1-semestr | |
| M1 | A) Formal mantiq<br>**Mantiq fanining obyekti, predmeti va vazifalari**<br>Tafakkur — mantiq fanining o‘rganish obyekti. Tafakkurning bilishda tutgan o‘rni va ahamiyati. |



| | |
|---|---|
| | Tafakkur shakli (strukturasi) tushunchasi. Tafakkurning universal mantiqiy shakllari: tushuncha, hukm (mulohaza), xulosa chiqarish. Tafakkur qonuni tushunchasi. Tafakkur qonunlari to‘g‘ri fikr yuritishning prinsiplari sifatida. Fikrning chinligi va shakl jihatidan to‘g‘ri qurilishi. Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur strukturasi (shakllari) va qonunlarini formal metodlar yordamida o‘rganuvchi fan sifatida. Mantiqning ilmiy ishonch - e’tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni. Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati. |
| M2 | **Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistonda mantiqqa oid bilimlarning shakllanishi**<br>*Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta’limotlar va rasionallik genezisi.* Borliq haqidagi tasavvurlar. Geometrik isbotlashlar. Dialektik asoslash va metafizik argumentlar. Sokrat va sofistlarda rasional muhokama yuritish. Mayevtika. Gorgiy, Protagorning “bahslashish san’ati”. Eristika va sofistika. Platon va mantiq falsafasi.Platonning tushuncha haqidagi ta’limoti. Platon falsafasida haqiqat tushunchasi.<br>*Aristotel mantiq ilmining va deduktiv ziddiyatsiz, aksiomatik qurilgan mantiqiy sistemaning asoschisi.* Aristotelning Organoni. Organonning tuzilishi. Kategoriyalar va mantiqiy ergashish haqidagi ta’limoti. Toplar. Tafakkur qonunlari va xaqiqat masalasi. Hukm haqidagi ta’limoti. Sillogizm nazariyasi. Aristotelning modal mantig‘i. “Analitika”larda nosillogistik mantiq. Aristotelning maktabi.<br>*Aristoteldan keyingi davrda mantiq ilmi.* Megar va stoiklarfalsafasi Tabiatdagi ziddiyatlar haqidagi bahslar. Teofrastning Aristotel mantig‘ini rivojlantirishga qo‘shgan xissasi: modal sillogizmlar nazariyasi. Teofrast va Evdem Rodosskiy tomonidan shartli, ayiruvchi va birlashtiruvchi asosli sillogizm nazariyasining rivojlantirilishi. Stoiklar ta’limotida mantiq masalalari: hukm, tushuncha, xulosa chiqarish va modalliklar. Aleksandr Afrodisiyskiy tomonidan Aristotel asarlarining sharxlanishi. Porfiriyning Aristotel “Kategoriya”lariga yozgan sharxi. |
| M3 | **O‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmining falsafiy bilimlar tizimidagi o‘rni**<br>O‘rta asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmining o‘rganilishi va tarqalishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar. Yunon mantiqiy tafakkurining arab dunyosiga o‘tish shart-sharoitlari Qadimgi xind, fors, yunon ilmiy- falsafiy asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi, ilmiy, falsafiy atamalarning yaratilishi. Tabiiy –ilmiy va fasafiy fanlar rivoji.Abbosiylar sulolasi davrida mantiqiy tadqiqotlar. Mutazilitlar ta’limotining g‘oyaviy asoslari, rasionalistik mohiyati. Rasionalizm va irrasionalizm. Kalom falsafasi. “Sof birodarlar”ning bilish nazariyasi.<br>**IX-XII asrlarda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmi**<br>**Al-Kindiyning mantiqiy ta’limoti**<br>Al-Kindiy (800-870) tomonidan arab tilida falsafa va mantiq atamalarining ishlab chiqilishi. Al-Kindiyning Aristotel asarlariga yozgan sharxlari. Mantiq va aniq fanlar.Isbotlash uchun asos bo‘luvchi bilimlar. Tushuncha va uni ta’riflash.<br>**Forobiyning mantiq konsepsiyasi**<br>Forobiy (873-950) ning mantiqqa oid asarlari. Mantiq ilmining til, grammatika, falsafa bilan o‘zaro aloqadorligi. Mantiq ilmining predmeti va vazifasi.Tushuncha, uning turlari .<br>**Abu Abdulloh Xorazmiy ilmiy merosida mantiq masalalari**<br>Abu Abdullox al-Xorazmiy (X asr)ning «Mafotix al-ulum asarida» ilmlar tasnifi va unda mantiq ilmining o‘rni. Xorazmiy asarida mantiq masalalarining bayon qilinishi.Tushuncha va so‘z. Yakka, individ tushunchasi. Xukm va xulosa chiqarish to‘g‘risida.<br>**Abu Rayxon Beruniy mantiq ilmi haqida**<br>Abu Rayhon Beruniy tomonidan ilmiy metod asoslarining ishlab chiqilishi.<br>**Ibn Sinoning mantiqiy ta’limoti**<br>Ibn Sino (1980-1037)ning ijodiy merosida mantiq ilmi.<br>**Baxmanyorning mantiqiy qarashlari.** |

| | |
|---|---|
| | Baxmanyorning falsafiy- mantiqiy asarlari. Ziddiyatsizlik qonunining metafizik va ilohiy talqini. Tushuncha, turlari, ta'riflash usullari. Yakka va umumiy tushunchalar. Xukm va xulosa chiqarish.<br>**Abu Xomid G'azzoliy mantiq ilmi haqida.**<br>Abu Xomid G'azzoliy (1059-1111)ning hayoti va asarlari. Ilm, ta'lim berish va ilm olish fazilati, uning aqliy va naqliy dalillari. Ilmlar tizimida mantiq. |
| M4 | **XII-XIV asrlarda mantiq ilmining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi rivoji**<br>**Ibn Rushdning mantiqiy qarashlari**<br>Ibn Rushd (1126-1198) ning hayoti va asarlari. Ibn Rushd bilish jarayonida mantiq ilmining axamiyati to'g'risida. Tushuncha, xukm, xulosa chiqarish to'g'risida. Modal xukmlarning klassifikasiyasi. Ibn Rushdning "Raddiyaga raddiya" asarida mantiq masalalari. Ibn Sino va Ibn Rushd mantiqiy ta'limotlarining Yevropa falsafasi va mantig'iga ta'siri<br>**Faxriddin Roziyning mantiqiy ta'limoti**<br>Faxriddin Roziy (1148-1210)ning hayoti va ijodiy merosi. Faxriddin Roziy mantiq ilmining predmeti va vazifalari to'g'risida. Xulosa chiqarishning tarkibiy qismlari bo'lgan tushuncha va xukm, ularning turlari. Modal xukmlar. Xulosa asoslari bo'lgan dastlabki bilim turlari Xulosa chiqarishning turlari.<br>**Nasriddin Tusiyning mantiqiy ta'limoti**<br>Nasriddin Tusiy (1201-1273)ning hayoti, ijodiy merosi. So'zning belgi sifatida tushunchaga va anglatadigan ma'nosiga nisbatan munosabati. Tafakkur qonunlari va xukmlar. Xukmlarning modalliga ko'ra turlari. Sillogizm va uning turlari. Induksiya va analogiya. Isbotlash va isbotlashda uchraydigan mantiqiy xatolar.<br>**Sa'duddin Ma'sud Taftazoniyning mantiqiy qarashlari**<br>Taftazoniy (1322-1390)ning mantiqqa oid asarlari.<br>**Mirsharif Jurjoniyning mantiqiy qarashlari** |
| M5 | **Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari mantiqiy qarashlarining Yevropa falsafasi va mantig'iga ta'siri.**<br>O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmining o'rganilishi va tarqalishi, ularining Evropa falsafasi va mantig'iga ta'siri. Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada mantiq ilmi<br>Uyg'onish davrida Evropa mantiq ilmi. (XV-XVI asrlar). |
| M6 | **Rossiya va Germaniyada** mantiq ilmi. XVIII-XIX asrlarda Germaniyada mantiq ilmi. XIX-XX asrlarda mantiq ilmining rivojlanishi |
| M7 | **Formal mantiqning asosiy qonunlari (prinsiplari).**<br>To'g'ri tafakkurning asosiy belgilari: fikrning aniq ma'noga ega bo'lishi, izchil va ziddiyatsiz qurilishi, yetarli asosga ega bo'lishi. Tafakkur qonunlarining mazmuni va o'zaro aloqasi. Ayniyat qonuni. Nozidlik qonuni. Uchinchisi mustasno qonuni. Yetarli asos qonuni. Tafakkur qonunlarga rioya qilish – bilishda haqiqatga erishish sharti. Tafakkur qonunlarinng ilmiy bilish va amaliy mushohada yuritish uchun ahamiyati. . |
| M8 | **Mantiq ilmi va til**<br>Til axborot (informasiya) belgilari sistemasi sifatida. Tilning funksiyalari. Belgi tushunchasi. Belgilarning asosiy turlari. Til ifodalarining ashyoviy mazmuni va ma'nosi. Tilni semiotik tahlil qilishning asosiy yunalishlari: semantika, pragmatika, sintaksis. Tabiiy va sun'iy tillar. Til – obyekt va metatil.<br>Nomlash nazariyasining asoslari. Til belgilarining asosiy turlari: gap, predmetlar belgilari (nomlari), xossa va munosabatlar belgilari (predikatlar), mantiqiy terminlar (bog'lovchilar, kvantorlar, operatorlar, erkin va bog'langan o'zgaruvchilar). Gap, uning ma'nosi va mazmuni.<br>Til belgilarini qo'llash prinsiplari:bir ma'nolik, ashyoviylik, o'zaro almashish. Almashtirish paradokslari va uning sabablari. Nomlarni qo'llash usullari va kontekstlar |



| | |
|---|---|
| | turlari. |
| M9 | **Mantiq fanida bilish obyekti va tavsifi**<br>Bilish obyektlari: empirik va nazariy, real va abstrakt obyektlar. Buyumlar, hodisalar, jarayonlar. Belgi tushunchasi. Belgilar turlari. Belgilarni ularning sistemasida tutgan o'rni va roli bo'yicha bo'lish. Predmetlar mohiyati. Kuzatish va nazariy terminlar. |
| | **2-semestr** |
| M10 | **Tushuncha tafakkur shakli sifatida.**<br>Tushuncha borliqni aks ettirish shakli sifatida. Tushunchaning tilda ifoda qilinish shakllari. Terminlar va tushunchalar. Bilishda tushunchalarning ahamiyati. Tushunchaning mantiqiy tavsifi. Tushunchaning mantiqiy strukurasi va asosiy xususiyatlari. Tushunchaning mazmuni va hajmi, ular o'rtasidagi munosabat. Tushunchaning mantiqiy va faktik mazmuni va hajmi. Tushunchaning to'la mazmuni. Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Eyler doiralari va Venna diagrammalari tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil kilish vositalari sifatida. Individ konseptlar tushuncha turlari sifatida. Aniq va noaniq deskripsiyalar. |
| M11 | **To'plam nazariyasi**<br>Elementlar va sinflar. Sinflar (to'plamlar) va kichik sinflar (kichik to'plamlar). Sinf elementlari. Elementlarning sinfga mansubligi va bir sinfning ikkinchi sinfga kirishi. To'plamlar ustida amallar: ko'paytirish, qo'shish, to'ldirish. Buyurtmali juftliklar. Sinflar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash. Binar munosabatlar xususiyatlari. Ekvivalentlik. Bog'lanishi bo'yicha amallar. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. |
| M12 | **Tushunchalarni ta'riflash va bo'lish**<br>Mantiqda ta'riflash masalasining qo'yilishi. Tushunchalarni ta'riflash (definisiya). Nominal va real ta'riflar. Aniq va noaniq real ta'riflar. Aniq real ta'rifning tuzilishi va turlari: atributiv, genetik, operasional ta'riflar. Noaniq real ta'riflar: abstraksiya orqali, kontekstual, induktiv, aksiomatik, rekursiv ta'riflar. Ident ta'riflash. Shartli ta'riflash. Ta'riflashga o'xshash usullar: tasvirlash, tavsiflash, ko'rsatish, misollar yordamida tushuntirish va boshqalar. Ta'riflash mezonlari. Ta'riflash qoidalari. Ta'riflashda uchraydigan mantiqiy xatolar. Ta'riflashning fan va amaliy muhokama yuritishdagi ahamiyati. Ta'riflashga nisbatan qo'yiladigan uslubiy talablar. Tushunchalarni bo'lish. Bo'lishning tuzilishi: bo'linuvchi tushuncha, bo'lish asosi, bo'lish a'zolari. Bo'lishning turlari: belgining o'zgarishiga bog'liq holda bo'lish va dixotomik bo'lish. Oddiy va bosqichli bo'lish. Nolga bo'lish masalasi va unga yondashish usullari.<br>Tasniflash (klassifikasiya). Bo'lish qoidalari va bo'lishda uchraydigan mantiqiy xatolar. Bo'lish va turkumlashning fan va amaliyotdagi ahamiyati. |
| M13 | **Hukm (mulohaza)ning va uning turlari**<br>Mulohazaning umumiy mantiqiy tavsifi va bilishdagi roli. Mulohaza va gap. Oddiy va murakkab mulohazalar. Oddiy mulohazalarning mantiqiy strukturasi (tarkibi, turlari). Oddiy mulohazalarda terminlar hajmi. Oddiy mulohazalar o'rtasidagi munosabatlar. Mantiqiy kvadrat.<br>Murakkab mulohazalar va ularning chin bo'lish shartlari.<br>Sentensial aloqalar. Mulohazalarning inkor qilinishi. Diz'yunksiya va kon'yunksiya. Shartli va ekvivalent mulohazalar. Chinlik jadvallari va tavtologiyalar.<br>Modallik tushunchasi. Modallik turlari va modal mulohazalar. Analitik va sintetik mulohazalar. |
| M14 | **Mulohazalar mantig'i haqida umumiy tushuncha**<br>Mulohazalar mantig'i tushunchasi. Asosiy mantiqiy bog'lamalarni jadval yordamida |

| | |
|---|---|
| | aniqlash. Mantiqiy amallarning birini ikkinchisi orqali ifodalash. Bog'lamalar sistemasining funksional to'laligi haqida tushuncha. Bajariladigan, aynan chin va aynan xato formulalarning mantiqan kelib chiqish munosabati va uning implikasiya bilan aloqasi. Ekvivalentlik (teng kuchlilik) munosabati va uning ekvivalentlik amali bilan aloqasi<br>V.*Predikatlar mantig'i haqida umumiy tushuncha.*<br>Predikatlar mantig'i tushunchasi. Predikatlar mantig'i tili: alfavit, tushunchalar, teoremalar, formulalar. Umumiylik va mavjudlik kvantorlarining kon'yunksiya va diz'yunksiya bilan aloqasi. Erkin va bog'langan o'zgaruvchilar. Erkin o'zgaruvchilarning turli xil talqini. Predmet sohasi, talqin etuvchi funksiya qiymatini predmet o'zgaruvchiga ag'darish (qo'shib qo'yish) funksiyasi. Formulalarning bajarilishi va umumiy qiymatga egaligi. |
| M15 | **Xulosa tafakkur shakli sifatida**<br>Xulosa chiqarish tafakkur shakli sifatida. Xulosa chiqarishning tuzilishi: asoslar, xulosa, xulosalash(asoslar va xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqa). Mantiqan kelib chiqish tushunchasi. Mantiqan zaruriy va ehtimoliy (to'g'riga o'xshash) xulosa chiqarishlar. Xulosa chiqarish turlari: deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogiya.<br>A.*Deduktiv xulosa chiqarish*ning umumiy tavsifi. Tabiiy tilda deduktiv xulosa chiqarish. Qat'iy hukmlardan xulosa chiqarish. Bevosita xulosa chiqarish, uning turlari. Oddiy qat'iy sillogizm, uning strukturasi, aksiomasi, umumiy qoidalari. Sillogizm figuralari va moduslari. Entimema. Epixeyrema. Polisillogizm, uning turlari. Soritlar. Murakkab hukmlarga asoslangan sillogistik xulosa chiqarish, uning turlari. Qat'iy hukmlardan nosillogistik xulosa chiqarish. Sillogistik xulosa chiqarishni aksiomalashtirish. |
| M16 | **Induktiv va anologiya asosida xulosa chiqarish**<br>Induktiv xulosa chiqarishning umumiy tavsifi. Induktiv xulosa chiqarishning to'liq va to'liqsiz induksiya tiplari. Induktiv yo'l bilan umumlashtirishning ehtimoliy xarakteri. To'liq va to'liqsiz induksiya. Ilmiy induksiya. Sababiy aloqadorlik, uning asosiy xususiyatlari. Ilmiy induksiyada xulosa chiqarishning eliminativ (hollarni tanlab olish) tarzda amalga oshirilishi. Ilmiy induksiya metodlari Induksiya va deduksiyaning bilish usullari sifatidagi ahamiyati va o'zaro aloqasi. Statistik xulosa chiqarish. Matematik induksiya tushunchasi.<br>D. *Analogiya*<br>Analogiyaning tuzilishi va turlari. Analogiyada xulosaning ehtimollik darajasini oshirish shartlari.<br>Analogiya bilish metodi sifatida. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish-modellashtirish metodining mantiqiy asosi. Izmorfizm tushunchasi. Modellarning turlari. Analogiyaning evristik funksiyalari. |
| M17 | **Formal isbotlash**<br>Argumentlash haqida umumiy mulohazalar. Argumentlash va ishonch-e'tiqodning shakllanishi. Ishonch-e'tiqodning tiplari. Argumentlash turlari. Isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tuzilishi: tezis, asoslar (argumentlar), demonstrasiya (isbotlash usuli) Isbotlash turlari: bevosita isbotlash va bilvosita isbotlash. Rad etish, uning turlari. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar. Paralogizm va sofizmlar. Mantiqiy paradoks. Bahs yuritish va diskussiya argumentlash turlari sifatida. Bahs yuritishning maqsadi va qoidalari. Ilmiy bahslar, ularning epistemik-evristik va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati. Bahsdagi tuzoqlar, ularni neytrallashtirish usullari. Bahsni rasionallashtirish: bahsning strategiyasi va taktikasi. |
| M18 | **Muammo, gipoteza, nazariya**<br>Muammaoning quyilishi. Ilmiy va nazariy, ijtimoiy muammolar. Savolning mohiyati, savol va javob dialektikasi. Nazariyaning turlari, mohiyati. |



| 3-semestr | |
|---|---|
| M 1 | **B) Dialektik mantiq**<br>**Dialektik mantiq to'g'ri tafakkur strukturasi**<br>Dialektik mantiqning vujudga kelishi tarixi, to'g'ri tafakkur strukturasi (shakllari) va qonunlarini formal metodlar yordamida o'rganuvchi fan sifatida. Mantiqning ilmiy ishonch - e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni. Mantiq fanining fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati. |
| M 2 | **Mantiq va dialektika. Ilmiy bilimlarning mantiqiy shakllari**<br>Dialektika tafakkur taraqqiyotining mantiqiy shakllari va qonunlarini o'rganuvchi metod sifatida.<br>Tafakkurning shakllanishi. Mifdan Logosga o'tishning mohiyati. Tafakkurning mazmuni va shakli birligi. «Tafakkur strukturasi» va «tafakkur taraqqiyoti» tushunchalari. |
| M 3 | **Tafakkur taraqqiy etib boruvchi bilish hodisasi sifatida**<br>Bilish taraqqiyoti davomida tafakkur strukturasining o'zgarib borishi. Tafakkur mantiqiy shakllarining nisbiy turg'unligi va o'zgaruvchanligi, apriorligi va aposteriorligi.Ilmiy tafakkur, uning asosiy xususiyatlari va taraqqiyoti: mantiqiy tahlil. |
| M4 | **Dialektik metodining shakllanishi va rivojlanishi**<br>Qadimgi davr falsafasida dialektikaning haqiqatni bilish metodi sifatida shakllanishi. Aristotel "Topika"sida dialektikaning ehtimoliy bilimlarini o'rganishning mantiqiy usuli sifatida asoslanishi. Yangi davr ilmu fanining rivojlanishi. Eksperimental fanlar va ilmiy-nazariy bilimlarning shakllanishi ularning dialetik metod to'g'risidagi tasavvurlar rivojiga ko'rsatgan ta'siri. Yangi davr falsafasida Aristotel mantig'ini takomillashtirishga bo'lgan urinishlar. Gegelning dialektikani mantiq sifatida asoslashi, unga bo'lgan munosabatlar. Dialektik mantiq to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlar. |
| M5 | **Ilmiy tafakkur taraqqiyotini o'rganishning dialektik- mantiqiy prinsiplari**<br>Obyektivlik va ziddiyatsizlik, Ziddiyat prinsipi. Aniqlik prinsipi. Predmetni ob'ektiv tarzda o'rganish prinsipi. Substansiyaviylik va tarixiylik. Dialektik metodning muhim talabi. Determinizim prinsipining mantiqiy usul sifatidagi mohiyati. |
| M6 | **Sistemali-strukturaviy va informatsion-kibernetik yondashuvlarning mantiqiy mazmun-mohiyati**<br>Abstraktlikdan konkretlikka ko'tarilish, tarixiylik va mantiqiylikning birligi pritsiplari. Dialektika va sinergetika prinsiplari, ularning o'zaro aloqadorligi hamda ilmiy bilish va amaliy faoliyatdagi ahamiyati |
| M7 | **Nazariy bilishning mantiqiy shakllari va ularning o'zaro aloqasi**<br>Kategoriyalar(nazariy tushunchalar) tafakkur shakllari sifatida. Kategorial sintez tushunchasi. Tafakkurning kategorial strukrurasi, uning bilish taraqqiyoti davomida o'zgarib borishi. Hozirgi fan kategoriyalari: falsafiy, xususiy-ilmiy, umumilmiy va fanlararo kategoriyalar, ularning o'ziga xosligi va o'zaro aloqadorligi. Ilmiy terminlar, ularning tafakkur strukturasida tutgan o'rni. |
| M8 | **G'oyaning bilimlar taraqqiyotida tutgan o'rni**<br>Milliy g'oyaning mantiqiy strukturasi. Gipoteza nazariy bilimlar mavjudligi va taraqqiyotining mantiqiy shakli sifatida. Umumiy va juz'iy, tasvirlovchi va tushuntiruvchi gipotezalar. Ishchi gipoteza tushunchasi. Gipotezani qurishda analiz, sintez, umumlashtirish va ideallashtirishning ahamiyati. |
| M9 | **Ilmiy nazariyaning mantiqiy strukturasi, shakllanishi va rivojlanishi**<br>Nazariya bilimlarning mantiqiy shakli sifatida. Ilmiy nazariyaning maqsadi va vazifalari: mantiqiy taxlil. Ilmiy nazariyaning mantiqiy strukturasi. Ilmiy nazariyaning boshlang'ich asosi (boshlang'ich tushunchalari), g'oyasi, natijasi. Ilmiy nazariyaning empirik asosi va formalizmi. |

| | |
|---|---|
| M10 | **Ilmiy nazariya turlari: deduktiv-aksiomatik (yarim aksiomatik) va aksiomatik nazariyalar.**<br>Formal sistemalar. Ilmiy nazariyani takomillashtirish va rivojlantirish: mavjud tushunchalar mazmunini aniqlashtirish, yangi tushunchalar kiritish, gipoteza va g'oyalarni qayta ko'rib chiqish va hokazo.<br>Nazariyaning bilimlarni hosil qilish, sistemaga solish va rivojlantirishdagi ahamiyati. |
| M11 | **Mantiq, haqiqat va dialektik isbotlash**<br>Haqiqat, uning mantiqiy va gnoseologik jihatlari, ularning o'zaro bog'liqligi. Haqiqatning semantik tavsifi. Sharq falsafasida haqiqat to'g'risidagi masalaning qo'yilishi va hal etilishi. Ikkilangan haqiqat nazariyasining mantiqiy tahlili. Hozirgi G'arb falsafasi va mantig'ida haqiqat masalasining talqin etilishi. |
| M12 | **Haqiqatni o'rnatish (isbotlash)ning mantiqiy usullari**<br>Formal va dialektik isbotlash, ularning o'zaro aloqadorligi Gegelning dialektik isbotlash to'g'risidagi mulohazalari. K. Popperning sinab ko'rish va xatoga yo'l qo'yish metodining mohiyati. Dialektik isbotlashda tasdiqlash va tushuntirishning tutgan o'rni. |
| M13 | **Nazariy bilishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi**<br>Mantiq tarixida mutloq ishonchli bilimlarning qidirilishi. Muammo bilmaslikdan bilishga, tusmol bilimlardan ishonchli bilimlarga o'tishning mantiqiy vositasi sifatida. Ilmiy muammo tushunchasi. Savol-muammolarni qo'yishning mantiqiy shakli. Savollarning turlari. Savolni to'g'ri qo'yish shartlari. Javob va uning turlari. Muammo shakllanishining mantiqiy asoslari. Muammoni hal etishning mantiqiy mexanizmlari. Nazariy muammo, savol va masalaning o'zaro dialektik aloqadorligi |
| M14 | **Dialektik metod va ilmiy tafakkur tarzi.**<br>Tafakkur tarzi tushunchasining mantiqiy mazmuni. Tafakkur tarzi va ilmiy paradigmalar. Tafakkur tarzi va fundamental muammolarning o'zaro aloqadorligi. Tafakkur tarzi va ilmiy bilishning kategorial strukturasi. |
| M15 | **Ilmiy tafakkur tarzi namoyon bo'lishning mantiqiy shakllari.** Qat'iy determinizmga asoslangan tafakkur tarzi(dinamik tafakkur tarzi), uning o'ziga xosligi va amal qilish sohalari. Ehtimoliy tafakkur tarzi, uning hozirgi ilmiy bilishda qo'llanilishi. Dialektik metod va ilmiy tafakkur tarzi, ularning o'zaro aloqadorligi. |
| | **4 semestr** |
| M1 | **C) Matematik mantiq**<br>**Matematik mantiq faning vujudga kelishi**<br>Matematmik mantiq fanining vujudga kelishi. G. Leybnisning tadqiqotlari Matematik mantiqda Bulning tadqiqotlari Formal mantiq. Dialektik mantiq. Matematik mantiq |
| M2 | **Mulohazalar ustida mantiq amallari**<br>Chin yoki yolg'onligini bir kiymatli aniqlash mumkin bo'lgan darak gaplar, mulohazalar |
| M3 | **Mulohazalar algebrasi, formula tushunchasi Mulohazalar algebrasida yechilish muammosi**<br>Mulohazalar algebrasi tushunchasini, algebra tushunchasi, to'plamda aniqlangan algebraik amallar to 'plami |
| M4 | **Teng kuchli formulalar**<br>Tavtologiya—mantiq qonuni . Mulohazalar algebrasining A va B formulalari teng. Mulohazalar algebrasining A va B formulalari teng |
| M5 | **Formulalarni teng kuchli almashtirish**<br>Formulalar tarkibi. Mantiqiy amallar bo'yivca mulohazalar |
| M6 | **Ikkilik qonuni**<br>Ta'rif. Mulohazalar algebrasining A formulasida ˥, ∧ , v mantiq amallaridan boshqa mantiq amallari , lemma. |



| | |
|---|---|
| M7 | **Teng quchli formulalarning tadbiqlari.**<br>Avtomatik boshqarish qurilmalari va elektron xisoblash mashinalarida yuzlab va minglab rele, elektron lampa, yarim-o'tkazgich va magnit elementlarini o'z ichiga olgan rele - kontakt sxemalar,. Bu sxemalar avtomatik boshqarish qurilmalari va elektron xisoblash, mashinalarini barcha ish faoliyatini boshqarish |
| M8 | **Logik amallarni to'liq sistemasi.** Logik amallar ustida ishlash va ularni bilish jarayonida o'rni |
| M9 | **Mukammal diz'yunktiv va mukammal kon'yuktiv normal formalar(MDNF, MKNF)** |
| M10 | **Predikatlar va ular ustida amallar**<br>Predikatlar algebrasining formulalari Predikatlarning tadbiqlari |
| M11 | **Mantiq fanining ilmiy bilimlarni taraqqiy ettirish, tizimga solish va asoslashdagi ahamiyati** |
| M12 | **Mantiq fanining ilmiy ishonch-e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni**<br>Mantiq ilmining bilish jarayonida tushunish va tushuntirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani rivojlantirishdagi ahamiyati. |
| M13 | **Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyotiga, mamlakatni modernizatsiyalash jarayoniga ta'siri.** |
| M14 | **Jamiyatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida paydo bo'ladigan muammolarning mantiqiy tahlili** |
| M15 | **Jahon barqaror taroqqiyoti va O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda** mantiq masalalarining tadqiq etilishi va mantiqning rivojlanish istiqbollari. |
| | **III. Mashg'ulotlar shakli: seminar mashg'uloti** |
| | **1-semestr** |
| S1 | Mantiq fanining obyekti, predmeti va vazifalari |
| S2 | Mantiq fanining rivojlanish bosqichlari:<br>- Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistonda mantiqqa oid bilimlarning shakllanishi;<br>- O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rni;<br>- XII-XIV asrlarda mantiq ilmining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi rivoji;<br>- Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari mantiqiy qarashlarining Yevropa falsafasi va mantig'iga ta'siri;<br>- Rossiya va Germaniyada mantiq ilmi; |
| S3 | Mantiq ilmi va til |
| S4 | Formal mantiqning asosiy qonunlari (prinsiplari) |
| S5 | Mantiq fanida bilish obyekti va tavsifi |
| | **2-semestr** |
| S6 | Tushuncha tafakkur shakli sifatida. |
| S7 | To'plam nazariyasi |
| S8 | Tushunchalarni ta'riflash va bo'lish |
| S9 | Hukm (mulohaza)ning va uning turlari |
| S10 | Mulohazalar mantig'i haqida umumiy tushuncha |
| S11 | Xulosa tafakkur shakli sifatida |
| S12 | Induktiv va anologiya asosida xulosa chiqarish |
| S13 | Formal isbotlash |
| S16 | Muammo, gipoteza, nazariya |
| | **3-semestr** |
| S1 | Dialektik mantiq to'g'ri tafakkur strukturasi |
| S2 | Mantiq va dialektika. Ilmiy bilimlarning mantiqiy shakllari. |
| S3 | Tafakkur taraqqiy etib boruvchi bilish hodisasi sifatida. |

| | |
|---|---|
| S4 | Tafakkur dialektik metodining shakllanishi va rivojlanishi. |
| S5 | Eksperimental fanlar va ilmiy-nazariy bilimlarning shakllanishi, |
| S6 | Ilmiy tafakkur taraqqiyotini o'rganishning dialektik- mantiqiy prinsiplari. |
| S7 | Sistemali-strukturaviy va informatsion-kibernetik yondashuvlarning mantiqiy mazmun-mohiyati. |
| S8 | Nazariy bilishning mantiqiy shakllari va ularning o'zaro aloqasi. |
| S9 | G'oyaning tafakkur shakli sifatida bilimlar taraqqiyotida tutgan o'rni. |
| S10 | Ilmiy nazariyaning mantiqiy strukturasi, shakllanishi va rivojlanishi. |
| S11 | Ilmiy nazariya turlari: deduktiv-aksiomatik(yarim aksiomatik) va aksiomatik nazariyalar. |
| S12 | Mantiq, haqiqat va dialektik isbotlash |
| S13 | Haqiqatni o'rnatish(isbotlash)ning mantiqiy usullari/ |
| S14 | Nazariy bilishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi. |
| S15 | Dialektik metod va ilmiy tafakkur tarzi. |
| S16 | Ilmiy tafakkur tarzi namoyon bo'lishning mantiqiy shakllari. |
| S17 | Dialektik metod va ilmiy tafakkur tarzi, ularning o'zaro aloqadorligi. |
| | **4-semestr** |
| S1 | Matematik mantiq faning vujudga kelishi |
| S2 | Mulohazalar ustida mantiq amallari |
| S3 | Mulohazalar algebrasi, formula tushunchasi, Mulohazalar algebrasida yechilish muammosi |
| S4 | Teng kuchli formulalar |
| S5 | Formulalarni teng kuchli almashtirish |
| S6 | Ikkilik qonuni |
| S7 | Teng quchli formulalarning tadbiqlari. |
| S8 | Logik amallarni to'liq sistemasi. |
| S9 | Mukammal diz'yunktiv va mukammal kon'yuktiv normal formalar(MDNF, MKNF) |
| S10 | Predikatlar va ular ustida amallar |
| S11 | Mantiq fanining ilmiy bilimlarni taraqqiy ettirish, tizimga solish va asoslashdagi ahamiyati |
| S12 | Mantiq fanining ilmiy ishonch-e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni |
| S13 | Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyotiga, mamlakatni modernizatsiyalash jarayoniga ta'siri. |
| S14 | Jamiyatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida paydo bo'ladigan muammolarning mantiqiy tahlili |
| S15 | Jahon barqaror taroqqiyoti va O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda mantiq masalalarining tadqiq etilishi va mantiqning rivojlanish istiqbollari. |



**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular**
**"Mantiq tarixi va nazariyasi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi**

| № | Mavzu nomi |
|---|---|
| | **1-semestr** |
| 1. | Mantiq fanining obyekti, predmeti va vazifalari |
| 2. | Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistonda mantiqqa oid bilimlarning shakllanishi |
| 3. | O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mantiq ilmining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rni |
| 4. | XII-XIV asrlarda mantiq iimining Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi rivoji |
| 5. | Yaqin va O'rta Sharq mutafakkirlari mantiqiy qarashlarining Yevropa falsafasi va mantig'iga ta'siri |
| 6. | Rossiya va Germaniyada mantiq ilmi |
| 7. | Mantiq ilmi va til |
| 8. | Formal mantiqning asosiy qonunlari (prinsiplari) |
| 9. | Mantiq fanida bilish obyekti va tavsifi |
| 10. | K. Popperning sinab ko'rish va xatoga yo'l qo'yish metodining mohiyati |
| | **2-semestr** |
| 1. | Predikatlar mantig'i va ularning tavsifi |
| 2. | Formal mantiqning asosiy qonunlari (prinsiplari) |
| 3. | Tilning mantiqiy tahlili |
| 4. | Nomlash nazariyasining asoslari |
| 5. | Tushuncha tafakkur shakli sifatida |
| 6. | Tushunchaning mantiqiy strukurasi va asosiy xususiyatlari. |
| 7. | Tushunchaning turlari va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. |
| 8. | To'plam nazariyasi. Elementlar va sinflar. |
| 9. | To'plamlar ustida amallar |
| 10. | Tushunchalarni ta'riflash |
| 11. | Tushunchalarni bo'lish |
| 12. | Oddiy mulohazalarning mantiqiy strukturasi va turlari |
| 13. | Muohazalarning modal xususiyatlari |
| 14. | Murakkab mulohazalar mohiyati |
| 15. | Mulohazalar chinligining shartlari |
| 16. | Gap va mulohazalar ustida mantiqiy tahlil |
| 17. | Tushuncha va mulohazaning o'zaro nisbat |
| 18. | Mantiq ilmimg bugungi kundagi nazariy va amaliy ahamiyati |
| 19. | Ehtimoliy tafakkur tarzi, uning hozirgi ilmiy bilishda qo'llanilishi |
| 20. | Savollarning turlari. |
| 21. | Savolni to'g'ri qo'yish shartlari |
| 22. | Javob va uning turlari. |
| | **JAMI** |
| | **3-4 semestr** |
| 1. | Ehtimoliy tafakkur tarzi, uning hozirgi ilmiy bilishda qo'llanilishi |
| 2. | Savollarning turlari. |
| 3. | volni to'g'ri qo'yish shartlari |

| | |
|---|---|
| 4. | Javob va uning turlari. |
| 5. | K. Popperning sinab ko'rish va xatoga yo'l qo'yish metodining mohiyati |
| 6. | Gegelning dialektik isbotlash to'g'risidagi mulohazalari |
| 7. | alektik isbotlashda tasdiqlash va tushuntirishning tutgan o'rni |
| 8. | iy nazariyaning empirik asosi va formalizmi |
| 9. | potezani qurishda analiz, sintez, umumlashtirish va ideallashtirishning ahamiyati |
| 10. | Milliy g'oyaning mantiqiy strukturasi |
| 11. | Tafakkurning kategorial strukrurasi |
| 12. | Dialektika tafakkur taraqqiyotining mantiqiy shakllari va qonunlarini o'rganuvchi metod sifatida |
| 13. | Tafakkur dialektik metodining shakllanishi va rivojlanishi |
| 14. | Ilmiy tafakkur taraqqiyotini o'rganishning dialektik- mantiqiy prinsiplari |
| 15. | Nazariy bilishning mantiqiy shakllari va ularning o'zaro aloqasi |
| 16. | oyaning tafakkur shakli sifatida bilimlar taraqqiyotida tutgan o'rni |
| 17. | poteza nazariy bilimlar mavjudligi va taraqqiyotining mantiqiy shakli sifatida |
| 18. | Ilmiy nazariyaning mantiqiy strukturasi |
| 19. | Ilmiy nazariyaning shakllanishi va turlari |
| 20. | Ilmiy nazariyani takomillashtirish va rivojlantirish |
| 21. | Haqiqat, uning mantiqiy va gnoseologik jihatlari |
| 22. | Formal va dialektik isbotlash, ularning o'zaro aloqadorligi |
| 23. | Nazariy bilishda muammoning qo'yilishi |

**MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI** fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Talabalar mantiq ilmiing vujudga kelishi va uning bosh masalasi to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Mantiq fani tarixi va nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va uning bilish uslublari haqida hamda iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar to'g'risida bilimlarga ega bo'lishadi.

Talabalar tafakkur jarayoni, uning mazmunini va tugri fikr yuritish talablarini o'rganadi. Talabalar Mantiq fani tarixi va nazariyasi fanining asosiy kategoriya to'grisida **ko'nikmaga ega bo'ladi.**

Xulosaviy bilimlar hosil qilish, dallilash, muammolarni qo'yish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslash, ilmiy nazariyalarning mantiqiy strukturasi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

To'g'ri fikrlash shakllari va qonun qoidalarini yaxshi egallash va ulardan ilmiy izlanish va amaliy muhokama yuritish jarayonida samarali foydalanish, birinchi manba bilan ishlashni o'rganadilar. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

| | |
|---|---|
| 1. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• **"MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• Talaba **"MANTIQ TARIXI VA NAZARIYASI"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***<br>Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 2. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** |



| | |
|---|---|
| | • ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• *munozara,*<br>• *o'z-o'zini nazorat.*<br>• "Aqliy hujum",<br>• "Muammo";<br>• Krossvord<br>• Annogrammalar<br>Ko'chma dars mashg'ulotlari |
| 3. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |
| 4. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Sharipov M., Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –Toshkent: G'.G'ulom, 2004. –B.216.<br>2. Sharipov M. Mantiq. Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2012.<br>3. M.Olloyorov, M.Olloyorova. N.Togayev. Samarkand. 2020 y.<br>4. Fayzixo'jayeva D. Mantiq: izohli lug'at. –Toshkent, 2015.<br>5. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). T., 2010.(o'quv qo'llanma)<br>**Xorijiy manbalar:**<br>a. Morri s R . Ernes t n a g e lan introductionto logic andscientific methodNew York/ 2007/<br>b. William_Marta_ Khaele. The development of logic.<br>c. Resher N.. The development of Arabic logic.<br>d. Patrick Suppes. Introduction to logic. Van Nostrand Reinhold Company. New York/ 1957/<br>e. Voyshvillo Ye.K., Degtyarev M.G. Logika kak chast teorii poznaniya i metodologii. Fundamentalnыy kurs.Uchebnik dlya filosofskix fakultetov. Kn.1-2. - Moskva: MGU, 1994.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar.**<br>1. Abu Ali Ibn Sina. al-Xikma al- mashrikiya.// Izbrannoye. T.1. Ashgabat 2003.<br>2. Abu Ali Ibn Sina. Danish-name.//Izbrannoye proizvedeniya. Dushanbe, 1980.<br>3. Abu Ali Ibn Sina.Ukazaniya i nastavleniya..//Izbrannыye proizvedeniya.- T.1. Dushanbe, 1980.<br>4. Abu Xomid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. //Ilm kitobi. 1-kitob.T., 2003.<br>5. Al-Farabi i razvitiye vostochnoy filosofii. Astana, 2005.<br>6. Al-Farabi. Dialektika.// Al-Farabi. Istoriko-filosofskiye traktatы. Alma-Ata, 1985.<br>7. Al-Farabi. Logicheskiye traktatы. Alma-Ata, 1975.<br>8. Al-Farabi.Filosofskiye traktatы. Alma-Ata, 1973.<br>9. Al-Farabi i razvitiye vostochnoy filosofii. Astana, 2005.<br>10. Beruniy Abu Rayxon. Qadimgi xalqlardan qõlgan yodgorliklar. T..1974.<br>11. Boltayev M. Voprosы gnoseologii i logiki v proizvedeniyax Ibn Sinы i yego shkolы. Dushanbe, 1965. |
| 5. | Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. |

| | |
|---|---|
| 6. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>F. Usmonov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dotsenti |
| 7. | **Taqrizchilar:**<br>- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi dotsenti (ichki) L.Djurayev<br>O.Gaybullayev – Samarqand Davlat chet tillar instituti, F.F.d, prof. |

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

**Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri** **prof. A.Samadov**

**Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani** **prof. A.Q. Aymatov**

**SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor** **prof. A.Soleev**



**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Mantiq tarixi va nazariyasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Ushbbu fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Mantiq tarixi va nazariyasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassalari kengashlari tamonidan tasdiqlanadi. Fan bo'ycha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi. Dasturda "Mantiq tarixi va nazariyasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

**SamDU Falsafa va milliy g`oya kafedrasi dotsenti L.Djurayev**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Mantiq tarixi va nazariyasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Ushbbu fan dasturi oliy ta'lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Mantiq tarixi va nazariyasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassalari kengashlari tamonidan tasdiqlanadi. Fan bo'ycha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi.

Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi. Dasturda "Mantiq tarixi va nazariyasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglarning kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

**Samarqand chet tillar instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori G'aybullayev O**

O. G'aybullayev
TASDIQLAYMAN
SamDCHTI RAD